

Xanchjou: birgalikda sayohat qiling - kamroq to'lang

2026 6 Mart

"Uzbekistan Airways" Toshkent – Xanchjou – Toshkent yo'nalishidagi reyslar uchun 4 kishidan 9 kishigacha bo'lgan guruhlariga mo'ljallangan maxsus A4PAX tarifini ishga tushirmoqda!

Toshkentdan Xanchjouga va qaytish yo'nalishlarida maxsus A4PAXOW/-RT tarifini quyidagi shartlar asosida rasmiylashtirish mumkin:

- Sotuv davri: 2026-yilning 9-martidan 15-martigacha;
- Parvoz davri: 2026-yilning 1-aprelidan 30-apreligacha;
- Ushbu tarif bo'yicha sotuvlar faqatgina "Uzbekistan Airways" AJning o'z muntazam reyslari uchun aviakompaniya saytida (UZS/USD/RUB), O'zbekiston Respublikasi hududida ("Uzbekistan Airways Sales" filiali va uning agentlari orqali), shuningdek, xorijda faqat o'zining sotuvlar tarmog'i uchun (HY bilan faqat to'g'ridan-to'g'ri agentlik shartnomalari asosida ishlaydigan agentlar, 25021...) ochiladi. BSP, ARC, TKP agentlariga nisbatan tatbiq etilmaydi;
- Bitta band qilishda (bronlashda) yo'lovchilarning eng kam soni – 4 kishi;
- Bitta band qilishda yo'lovchilarning eng ko'p soni – 9 kishi;

Agar band qilishda yo'lovchilar soni 4 kishidan kam bo'lsa, agentga band qilish qoidalarini buzganligi bo'yicha tegishli e'tiroz bildiriladi, shuningdek, A4PAX- tariflari darajasi va L band qilish sinfidagi qaytarilmaydigan tariflar o'rtasidagi farq hamda YQ yig'imidagi farq undiriladi.

- Ushbu tarif bo'yicha chiptani qayta band qilish/qayta rasmiylashtirish va qaytarish taqiqlanadi (16-toifaga qarang);
- Toshkentdan uchish qismida bepul yuk tashish me'yori – 1PC (x32 kg), Xanchjoudan uchishda esa – 2 PC (x32 kg);

- Boshqa turdagi tariflar bilan birgalikda qo'llashga (kombinatsiya qilishga) ruxsat etilmaydi.